

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MOLIYAVIY TAHLIL VA AUDIT KAFEDRASI

**Qo‘lyozma huquqida
UDK: 658.1:658 (575.1)**

NOMOZOV ILHOMJON ZIYODULLO O‘G‘LI

**ISHLAB CHIQRISH KORXONLARIDA MAJBURIYATLAR
HISOBI VA ICHKI AUDITI USULLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Mutaxassislik: 70410102- «Audit (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)»

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
i.f.d., prof. Xasanov B.A.

TOSHKENT-2023

Magistrlik dissertatsiyasi ishi «Moliyaviy tahlil va audit» kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

8 -sonli bayonnoma. « 25 » aprel 2023 yil


Kafedra mudiri:

i.f.d., prof. Xajimuratov N.SH.


imzo 18-may.
sana


Ilmiy rahbar:

i.f.d., prof. Xasanov B.A.


imzo 18-may
sana

Magistratura talabasi:

Nomozov I.Z.


imzo 18-may
sana

Dissertatsiya "Moliya va buxgalteriya hisobi" fakultetida 2023-yil

"18" may da

№ MUA 01/5 raqami bilan ro'yxatga olinadi.

ANNOTATSIYA

Mazkur dissertatsiya ishida korxonalarda ishlab chiqarish korxonlarida majburiyatlar hisobi va ichki auditi usullarini takomillashtirish o'rganilgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan Sellyuloza-qog'oz ishlab chiqarish korxonalarida majburiyatlar hisobi va ichki auditi usullarini takomillashtirish masalalari bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish va ularda auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishni takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: majburiyatlar, uzoq muddatli majburiyatlar, joriy majburiyatlar, kreditorlik qarzi, budjetga qarzdorlik, mehnat haqi bo'yicha qarz, bank kreditlari bo'yicha qarz.

ABSTRACT

In this dissertation, the improvement of accounting and internal audit methods in production enterprises was studied, as well as the analysis of problems related to the issues of accounting and improvement of internal audit methods in pulp and paper production enterprises operating in the Republic of Uzbekistan. practical proposals and recommendations for improving the conduct of audits were developed.

Key words: liabilities, long-term liabilities, current liabilities, payables, debt to the budget, debt for wages, debt for bank loans.

MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| Annotatsiya | 3 |
| Mundarija | 5 |
| Keltirilgan jadvallar ro'yxati..... | 6 |
| Keltirilgan rasmlar ro'yxati..... | 6 |
| I BOB. KIRISH | |
| 1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi | 7 |
| 1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari..... | 9 |
| 1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari..... | 10 |
| 1.4. Tadqiqot ob'yekti va predmeti | 10 |
| 1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati..... | 11 |
| 1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi..... | 11 |
| II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI | |
| 2.1. Adabiy manbalarda keltirilgan tadqiqotlar natijalari | 12 |
| 2.2. Tadqiqot gipotezasi | 18 |
| III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI | |
| 3.1. Ma'lumotlar manbalari | 19 |
| 3.2. Tadqiqot dizayni | 20 |
| 3.3. Tadqiqotda qo'llanilgan uslublar | 20 |
| 3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar | 21 |
| 3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi ... | 21 |
| 3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar..... | 21 |
| IV BOB. TADQIQOT TAHLILI VA NATIJALAR..... | |
| 4.1. Majburiyatlarning iqtisodiy mohiyati va ularning buxgalteriya hisobidagi nazariy muammolari | 22 |
| 4.2. Majburiyatlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida yuritish xususiyatlari | 38 |
| 4.3. Majburiyatlar ichki auditini tashkil etishning uslubiy masalalari | 48 |
| 4.4. Korxonalarda majburiyatlar ichki auditini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish | 58 |
| V BOB. XULOSA VA TAKLIFLAR | |
| 5.1. Tadqiqotning asosiy ilmiy - amaliy yangiligi va natijalari | 65 |
| 5.2. Tadqiqot natijasida keltirilgan asosiy tavsiya va takliflar | 66 |
| 5.3. Kelgusi tadqiqotchilar uchun takliflar | 67 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI | 69 |

I BOB. KIRISH

1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Milliy iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini oqilona boshqarish va moliyaviy barqarorligi hamda to'lovga layoqatliligini ta'minlashni ustuvor maqsad qilib qo'yadi. Bu o'z navbatida korxonalar ishlab chiqaradigan mahsulotining sifati va bahosiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, ularning raqobatbardoshligini ta'minlashga va majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishi va samarali boshqarilishini talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida: "loyihani amalga oshirish uchun qarz oluvchi korxonalarining moliyaviy holati, loyihaning hayotiyliigi, pul oqimlari va loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa xatarlar tahlili asosidagi davlat kafolatini berishning maqsadga muvofiqligi yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga Moliya vazirligining xulosasini kiritish; davlat kafolati uchun to'lovlarni qarz oluvchi korxonalarining moliyaviy holati bo'yicha xatarlar darajasidan kelib chiqqan holda belgilash; davlat kafolati taqdim etishda korxonalariga moliyaviy shart va talablarni belgilash tartibini joriy etishni nazarda tutish" vazifalari belgilab qo'yilgan.¹

Iqtisodiy taraqqiyotga erishishda xo'jalik yurituvchi sub'yektlar majburiyatlarini kamaytirish va ularni oqilona boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Majburiyatlar xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy holatiga va to'lov qobiliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli ularning darajasini aniqlash va qaytarish muddatlariga rioya qilish masalalari muhim sanaladi.

Buxgalteriya hisobi tizimida majburiyatlarni baholash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirishga oid ayrim muammolar vujudga kelmoqda. Bu esa majburiyatlarning buxgalteriya hisobini iqtisodiyotning hozirgi sharoitiga mos

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". 2022 yil 28 yanvar PF-60-son. 2-ilova. "Inson qadriini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi. <https://lex.uz/docs/5841063>